

KO'Z SHIKASTLANISHI BELGILARI, KO'ZGA TUSHGAN YOT JISMNI OLIB TASHLASH

Voxobova Diyora Husniddinjon qizi
Farg'ona shahar Sino tibbiyot texnikumi
"Maxsus fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ko'z shikastlanishi belgilari, ko'zga tushgan yot jismni olib tashlash haqida aytilgan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: gifema, gemoftalm, termik, kimyoviy, termokimyoviy, ultrabinafsha nur, infraqizil nur.

SIGNS OF EYE INJURY, REMOVAL OF A FOREIGN BODY IN THE EYE

Annotation: This article discusses the signs of eye injury, removal of a foreign body in the eye, and provides recommendations.

Keywords: hyphema, hemophthalmus, thermal, chemical, thermochemical, ultraviolet light, infrared light.

Ko'z shikastlanishi - ko'zning turli jismlar (tosh, qum, sement, ohak, metall, yog'och, shisha, ko'mir va hokazo)dan shikastlanishi.



Bunda ko'z achishib og'riydi, ko'p yosh oqadi va bemor yorug'likka qaray olmaydi. Ko'zning shikastlanishi, asosan, 3 turli bo'ladi: jaroxat, lat yeyish va kuyish. Ko'zni shikastlovchi jismlar katta, o'rtacha va maydaroq, o'tkir va o'tmas, qattiq, suyuq va nur shaklida; ular mix, pichoq, qaychi, vilka, o'tin, tayoq, tarasha, yoy kabi uchi o'tkir kesuvchi narsalar bo'ladi. Mayda jismlar kuchsiz urilsa, ko'zni tyoshib utmaydigan jarohatlarga olib keladi. Yot jism ko'zga qattiq tegsa, shox parda yoki ko'z

oqini teshib ko'z ichiga kirishi, ayrim holdarda ko'z soqqasini tyoshib chiqib ketishi mumkin. Ko'z soqqasi og'ir shikastlansa, o'z shaklini yo'qotadi. Ko'z jarohatlarida kon'yunktiva ostiga va ko'zning ichiga qon quyiladi (gifema, gemoftalm). Ko'z ichiga yot jismning kirishi va og'ir shikastlanishlar oqibatida ko'z ko'rmay qoladi.

O'tmas narsalarning tegishidan ko'z lat yeyishi, uning tashqi va ichki qismlarida og'ir o'zgarishlar paydo bo'lishi mumkin. Ko'zning pardalari va ichiga qon quyilishi, shishishi natijasida ko'rish xiralashadi. Ular so'rilgach, ko'rish yaxshilanadi, ba'zan esa to'r pardaning shikastlanishi ko'rlikka olib keladi.

Ko'zning kuyishi termik, kimyoviy va termokimyoviy bo'ladi. Kislota va ishqorlardan ko'rish a'zolarining oldingi qismi, qovoq terisi, shilliq va shox pardalar kuyishi mumkin. Ko'z soqqasining ichiga kimyoviy moddalar kirishi og'ir asoratlarga olib keladi. Ish jarayonida ultrabinafsha, infraqizil, rentgen va boshqa nurlar ko'zga zarar yetkazadi. O't ochuvchi turli qurollardan ham ko'z jarohatlanadi.

Ko'z shikastlanganda darqol umumiy amaliyot vrachiga yoki ko'z vrachiga murojaat qilish zarur. Ko'z shikastlanishining oldini olish uchun himoya ko'zoyvagi taqish, ish joyi gigiyeva va xavfsizlik texnikasi qoidalariga mos jihozlanishi zarur



Ko'zga tushgan yot jismni olib tashlash.

Bemor yotgan holda kasalxonaga yuboriladi. Kasalxonada ko'z ichida yot jism bor yo'qligini aniqlash uchun rentgen qilinadi (maxsus Komberg-Baltin protezi ko'zga taqiladi va ko'z orbitasining rentgen surati olinadi) va tez operatsiya qilinadi. Ko'z ichida yot jism qolib ketsa u keyinchalik oksidlanadi, agar yot jism temir bo'lsa, u

siderozga olib keladi bunda rangdor parda zangsimon bo'lib qoladi. Gavharda ham shunday dog'lar paydo bo'ladi, ko'z tubida toksik retinopiya rivojlanadi. Keyinchalik ko'ruv nervi ham zararlanib, bemor ko'r bo'lib qolishi mumkin. Agar yod jism mis bo'lib, u ko'z ichida qolib ketsa xalkozga olib keladi. Bunda eng xarakterli o'zgarish gavharda kuzatilib, unda kangaboqar guliga o'xshash xiralanish kuzatiladi.

1.Ko'zda yuzaki yot jism bo'lsa nam paxta yoki pinset yordamida olib tashlanadi.

2.Ko'zga og'riqsizlantiruvchi tomchi (0,2 yoki 0,5% li tetrakain 2,0% li lidokain) tomiziladi

3. Kon'yuktival xaltacha asta sekin dezinfeksiyalovchi eritma bilan yuviladi

4. Dezinfeksiyalovchi tomchi tomziladi

5. 0,1% li adrenalin tomziladi qonni to'xtatish maqsadida

6.Ko'zga binokulyar (ya'ni ikki ko'zga) bog'lam qo'yiladi. Muskul orasiga og'riqsizlantruvchi, qon to'xtatuvchi dorilar, qoqsholga qarshi zardob, kuchli antibiotiklar qilinadi.

Xulosa: Ko'zga yot jism tushganda zudlik bilan shifikorga murojat qiling!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Muxamadiev R.O' "O f t a l m o l o g i y a"

2. M.H.HAMIDOVA, Z.Q.BOLTAYEVA "KO'Z KASALLEKLARI"

3. Internet saydlari:

<https://uz.wikipedia.org/wiki/>

<https://fayllar.org/>